



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI HAY'AT QARORI

2025-yil 2-iyul

№ 12/2

Toshkent sh.

2025-yilning II-choragida O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri va o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni baholash to'g'risida.

Vazirlik hay'at yig'ilishi ta'kidlaydiki, 2025-yilning II-choragida Suv xo'jaligi vaziri va o'rinbosarlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-apreldagi *"Qishloq va suv xo'jaligi sohalaridagi vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari faoliyatining 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash to'g'risida"*gi 265-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev tomonidan mazkur qaror bilan tasdiqlangan 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)da 2025-yilning II-choragiga belgilangan 10 ta asosiy mezonlarning reja ko'rsatkichlariga erishishni ta'minlash yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilishi natijasida irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini hamda nasos stansiyalari va sug'orish quduqlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida tadbirkorlik subyektlariga foydalanishga berish bo'yicha 700 ta loyiha amalga oshirilgan, 4,5 mlrd.m³ suv tejalgan, 67,2 mln. dollar miqdoridagi xorijiy investitsiya mablag'lari o'zlashtirilgan, Vazirlik tizimidagi nasos stansiyalarida eskirgan 67 ta nasoslar yangilangan, 808,7 mlrd. so'mlik irrigatsiya tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish tadbirlari amalga oshirilgan, 300 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar qo'llangan, 406,7 km irrigatsiya tizimi kanallari betonlashtirilgan, suv xo'jaligi obyektlarini raqamlashtirilganlik darajasi 62,8 foizga yetkazilib, baholash reytingi natijasiga ko'ra, faoliyatning umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 98,0 foizni tashkil etgan.

Vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayev tomonidan hisobot davrida belgilangan 9 ta asosiy mezonlarning reja ko'rsatkichlariga erishishni ta'minlash maqsadida 2 ta yirik suv xo'jaligi inshootlarida nazorat-o'lchash uskunalari hamda xabar berish tizimlari modernizatsiya qilingan, suv resurslarini boshqarish, irrigatsiya tizimlari va gidrotexnika inshootlari hamda nasos stansiyalaridan foydalanish bo'yicha 3,2 mlrd. so'mlik ilmiy-tadqiqot, tajriba – konstruktorlik ishlari moliyalashtirilgan, 11 ta ilmiy-tadqiqot loyihalari amalga oshirilgan, suv xo'jaligi obyektlari foydalanishidagi 10 ming gektar yer maydonlari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini hamda nasos stansiyalari va sug'orish quduqlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida tadbirkorlik subyektlariga foydalanishga berish bo'yicha 700 ta loyiha amalga oshirilgan, suv resurslarini boshqarish, suvning hisobini yuritish, gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish bo'yicha 1 163 ta suv xo'jaligi xodimlarining malakasi oshirilib, baholash reytingi natijasiga ko'ra, faoliyatning umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 96,1 foizni tashkil etgan.

Vazirning o'rinbosari O'.Sheraliyev tomonidan 2025-yilning II-choragiga belgilangan 9 ta asosiy mezonlarning reja ko'rsatkichlariga erishishni ta'minlash maqsadida suv xo'jaligi xodimlari oylik ish haqini respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga yetkazish (o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan) 82,0 foizga bajarilgan, Suv xo'jaligi vazirligi va tizim tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armalariga 66,8 mlrd. so'm mablag'lar tushirilgan, suv resurslarini boshqarish, irrigatsiya tizimlari va gidrotexnika inshootlari hamda nasos stansiyalaridan foydalanish bo'yicha 3,2 mlrd. so'mlik ilmiy-tadqiqot, tajriba – konstruktorlik ishlari moliyalashtirilgan, 550 ta suv xo'jaligi inshootlarida real vaqt rejimida suvni nazorat qilish va uning hisobini yuritish uchun "Smart Water" ("Aqlli suv") suv o'lchash qurilmalari o'rnatilgan, 67,2 mln. dollar miqdoridagi xorijiy investitsiya mablag'lari o'zlashtirilgan, 43 ta tashkilotlarda budjet tizimi mablag'lari maqsadli va samarali sarflanishi o'rganilgan, 34 ta tizim tashkilotlarida budjet intizomini mustahkamlash va budjet to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlarining oldini olinib, baholash reytingi natijasiga ko'ra, faoliyatning umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 93,1 foizni tashkil etgan.

Vazirning o'rinbosari R.Qarshiyev tomonidan hisobot davrida belgilangan 11 ta asosiy mezonlarning reja ko'rsatkichlariga erishishni ta'minlash maqsadida suv resurslarini samarali boshqarish, suvni tejaydigan va raqamli texnologiyalarni joriy qilish, irrigatsiya tadbirlarini amalga oshirish, yerlarni lazer tekislash, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish hisobidan 4,5 mlrd.m³ suv tejalgan, 5 100 dona gidropostlarning pasportlari rasmiylashtirilgan, 1 826 dona gidropostlar attestatsiyadan o'tkazilgan, 501 dona suv o'lchash vositalari (vertushka) tarirovka va qiyoslash ko'rigidan o'tkazilgan, 175 marta dala sharoitida suv o'lchash bo'yicha o'quv-seminarlari tashkil etilgan, 4,3 km kanal dambasida himoya ishi bajarilgan, 46,8 km kanallar tozalangan, 83 ta gidrotexnika inshootlari va 267 ta gidropostlar ta'mirlangan, suvdan tejamli va samarali foydalanish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish bo'yicha 22 dona ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotlar almashinuvi amalga oshirilib, baholash reytingi natijasiga ko'ra, faoliyatning umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 95,4 foizni tashkil etgan.

Vazirning o'rinbosari Z.Ishpulatov tomonidan 2025-yilning II-choragiga belgilangan 9 ta asosiy mezonlarning reja ko'rsatkichlariga erishishni ta'minlash maqsadida 300 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar amalga oshirilgan, 120 ta suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish ishlariga ko'maklashuvchi servis xizmat ko'rsatish guruhlarini tashkil etilgan, fermerlar va klasterlar hisobidagi ichki tarmoqlardagi 1 750 km kanallar tozalangan, 1 870 ta gidrotexnika inshootlari, 1 760 ta gidropostlar ta'mirlangan, 72 ta nasos stansiyalarida eskirgan elektro dvigatellar hamda 67 ta nasos stansiyalarida eskirgan nasoslar yangilangan, 52 mln.kVt/s elektr energiyasi iste'moli tejalgan, 6,5 mlrd. m³ iste'mol qilingan suv hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar soliq organlariga taqdim etilib, baholash reytingi natijasiga ko'ra, faoliyatning umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 93,3 foizni tashkil etgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-apreldagi 265-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini ta'minlash bo'yicha Suv xo'jaligi vazirining o'rinbosarlari tomonidan joriy yilning II-choragida faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy tahlil va muhokama qilib chiqib, faoliyat samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishi bo'yicha ularning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

Qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirining o'rinbosarlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-apreldagi 265-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2025-yil uchun eng

muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar ***talab darajasida emas deb topilsin.***

2. 2025-yilning II-choragi yakunlari bo'yicha joriy yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini ta'minlash yuzasidan:

Vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayevning faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholash 9 ta asosiy mezonlarda belgilangan reja ko'rsatkichlarining bajarilishi bo'yicha umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 96,1 foizni;

Vazirning o'rinbosari R.Qarshiyevning faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholash 11 ta asosiy mezonlarda belgilangan reja ko'rsatkichlarining bajarilishi bo'yicha umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 95,4 foizni;

Vazirning o'rinbosari O'.Sheraliyevning faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholash 9 ta asosiy mezonlarda belgilangan reja ko'rsatkichlarining bajarilishi bo'yicha umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 93,1 foizni;

Vazirning o'rinbosari Z.Ishpulatovning faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholash 9 ta asosiy mezonlarda belgilangan reja ko'rsatkichlarining bajarilishi bo'yicha umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 93,3 foizni tashkil etganligi inobatga olinsin.

Vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayev, Vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev va Z.Ishpulatovlarning faoliyat ko'rsatkichlari ***“yaxshi” deb baholansin.***

Belgilab qo'yilsinki, hisobot davrida faoliyat samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari reja ko'rsatkichlarini baholash reytingi natijalariga ko'ra, faoliyat samaradorligi ***qoniqarsiz*** deb topilgan taqdirda Vazir o'rinbosarlarining mas'uliyati yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritiladi.

3. Vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayev, Vazir o'rinbosarlari O'.Sheraliyev, R.Qarshiyev va Z.Ishpulatovlarga:

2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini so'zsiz ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O'zbekiston-2030” strategiyasini “*Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida*”gi PF-16-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan amaliy tadbirlar rejasida joriy yilga belgilangan topshiriqlarga asosiy e'tiborni qaratish;

vazirlik tomonidan ishlab chiqilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga, dasturlar, takliflar va chora-tadbirlarga aniqlik kiritib ularning ro'yxatini shakllantirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni kamida ***45 kun oldin*** boshlab, tegishli vazirlik va idoralar hamda vakolatli organlar bilan kelishilgan hamda Adliya vazirligining xulosasini olgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini tashkil etish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlarini tahlil qilib, ushbu topshiriqlar ichidan mablag' talab qilinadigan va xorijiy mamlakatlar, shu jumladan, Xalqaro moliya institutlari va chet el investitsiyalari bilan bog'liq masalalar bo'yicha birinchi navbatda shug'ullanib, ularni to'laqonli va sifatli ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;

topshiriqlarni ijro muddatidan barvaqt bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish, yuzaga kelayotgan har bir muammoli masalani Vazir o'rinbosarlari, lozim bo'lsa Vazir huzurida muhokama qilib, hamkorlik va muloqot asosida hal etish;

4. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari D.Aliqulova hamda Strategik rejalashtirish va metodologiya bo'limi boshlig'i S.Musurmonovlarga:

har chorak yakuni bilan keyingi oyning 3-sanasiga qadar Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-apreldagi “*Qishloq va suv xo'jaligi sohalaridagi vazirliklar, idoralar va xo'jalik*

birlashmalari faoliyatining 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash to'g'risida"gi 265-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ning hisobot davri (*choraklik*) yakuni bo'yicha natijalarni (*ma'lumot va tahliliy materiallarni*) hay'at yig'ilishi muhokamasiga kiritib borilishini ta'minlash;

har chorak yakuni bilan keyingi oyning 10-sanasiga qadar samaradorlik ko'rsatkichlari bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotni Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining "samaradorlik.uz" elektron platformasiga kiritishi hamda unda rahbarlar va ularning o'rinbosarlari faoliyatining samaradorligi reytingi shakllantirish borasida hamkorlikda ishlash;

har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 15-sanasiga qadar Vazirlik hay'at yig'ilishida Vazir o'rinbosarlarining faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarining natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Axborot xizmati boshlig'i Sh.Suyunov O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri o'rinbosarlarining 2025-yilning II-choragi faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, tele va radiokanallar, Vazirlikning rasmiy veb-sayti, Vazirlikning Telegram ijtimoiy tarmog'idagi kanali, Facebook ijtimoiy tarmog'idagi sahifasida izchil yoritib borilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Hay'at raisi



Sh. Xamrayev